

“ILMIY TAFAKKUR VA ZAMONAVIY TADQIQOTLAR: MUAMMOLAR, YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR” MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY KONFERENSIYASI
Qabul qilindi: 2-sentabr 2026-yil • Ma’qullandi: 8-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 9-sentabr 2026-yil

MIGRATSIYA JARAYONLARINING SURXON VOHASI AHOLISI ETNIK TARKIBI VA DEMOGRAFIK TUZILISHIGA TA’SIRI

Toshmamatov Azizbek Tohir o‘g‘li
Termiz arxeologiya muzeyi yetakchi mutaxasisi
toshmamatovazizbek096@gmail.com



Annotatsiya: Surxon vohasi tarixan turli etnik guruhlar istiqomat qilgan hududlardan biri bo‘lib, uning aholisi tarkibida o‘zbeklar bilan bir qatorda tojiklar, turkmanlar, qozoqlar, tatarlar, ruslar va boshqa millat vakillari ham mavjud bo‘lgan. XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshlarida kechgan migratsiya jarayonlari mazkur etnik tarkibning shakllanishi va o‘zgarishida muhim omillardan biri bo‘ldi.

Kalit so‘zlar: etnik tarkib, demografik tuzilish, etnik guruhlar, aholi tarkibi, migratsiya, demografik jarayonlar, tabiiy o‘sish, urbanizatsiya, mehnat resurslari, etnik xilma-xillik, ichki migratsiya, tashqi migratsiya.

Kirish: Sovet davrida aholining hududiy qayta taqsimlanishi, sanoat va qishloq xo‘jaligining rivojlantirilishi hamda yangi yerlarning o‘zlashtirilishi natijasida Surxon vohasiga turli hududlardan aholi ko‘chib kelgan. Ayniqsa, sanoat, transport va harbiy infratuzilmaning rivojlanishi yangi mehnat resurslariga ehtiyojni yuzaga keltirib, vohaning ayrim hududlarida aholi sonining ortishiga sabab bo‘lgan. Bu jarayonlar natijasida aholining nafaqat soni, balki etnik tarkibida ham o‘zgarishlar yuz bergan.

Asosiy qism Migratsiyaning etnik tarkibga ta’siri, avvalo, turli etnik guruhlarning hududiy joylashuvi va sonidagi o‘zgarishlarda namoyon bo‘ldi. Aholining boshqa hududlardan kelib joylashishi vohaning ayrim shahar va tumanlarida etnik xilma-xillikning kuchayishiga olib keldi. Shu bilan birga, tarixan shakllangan mahalliy etnik guruhlarning o‘zaro aloqalari ham davom etdi.

Migratsiya demografik tuzilishga ham bevosita ta’sir ko‘rsatdi. Shaharlarga ko‘chib kelgan aholining asosiy qismini yoshlar va mehnatga layoqatli aholi tashkil etgan. Natijada shaharlarda mehnat resurslari ko‘payib, iqtisodiy faollik oshgan. Qishloq joylarda esa yosh va mehnatga layoqatli aholining kamayishi ayrim hududlarda demografik tuzilishga ta’sir ko‘rsatgan.

Muhokama: Urbanizatsiya ham migratsiya va demografik o‘zgarishlarning muhim ko‘rinishlaridan biri bo‘ldi. Surxon vohasida Termiz, Denov va Sherobod kabi markazlarning rivojlanishi aholining shaharlarga yo‘nalishini kuchaytirdi. Shaharlarning iqtisodiy va ijtimoiy imkoniyatlari kengayishi natijasida aholining joylashuv tarkibida shaharlar foydasiga o‘zgarishlar yuzaga keldi. 2000-yillardan boshlab urbanizatsiya jarayonining yana faollashgani nafaqat yirik markazlarda, balki kichik shaharlarda ham demografik o‘zgarishlarni kuchaytirdi. Demografik jarayonlarda migratsiya bilan bir qatorda aholining tabiiy o‘sishi ham muhim rol o‘ynadi. Sovet davrida Surxon vohasida tabiiy o‘sish sur’atlarining yuqoriligi aholi sonining tez ortishiga xizmat qilgan. Migratsiya oqimlarining ushbu tabiiy o‘sish bilan birgalikdagi ta’siri hududning demografik salohiyatini oshirdi. Mustaqillik yillarida migratsiyaning mazmuni o‘zgarib, tashqi mehnat migratsiyasi hamda iqtisodiy sabablarga bog‘liq aholi harakati kuchaydi. Bu jarayonlar aholining yosh tarkibi, mehnat resurslari va oilaviy-demografik holatiga ta’sir ko‘rsatgan yangi omillardan biri sifatida namoyon bo‘ldi. Dissertatsiya xulosalarida ham iqtisodiy islohotlar, tashqi mehnat migratsiyasi, urbanizatsiya va tabiiy o‘sish natijasida yangi etnik-demografik tendensiyalar shakllangani qayd etilgan.

Natijalar va tahlil: Tadqiqot natijalari migratsiya jarayonlari Surxon vohasi aholisining etnik va demografik tuzilishiga ikki asosiy yo‘nalishda ta’sir ko‘rsatganini ko‘rsatadi. Birinchidan, turli hududlardan aholining ko‘chib kelishi etnik xilma-xillik va etnik guruhlarning hududiy joylashuviga ta’sir qilgan. Ikkinchidan, migratsiya aholining yosh tarkibi, mehnat resurslari, shahar va qishloq aholisi nisbatidagi o‘zgarishlarni kuchaytirgan.

Shu bilan birga, migratsiya natijasidagi etnik xilma-xillik Surxon vohasidagi ijtimoiy-madaniy aloqalarning rivojlanishiga ham ta’sir ko‘rsatgan. Vohada turli millat vakillarining birgalikda yashashi natijasida millatlararo totuvlik va bag‘rikenglik muhiti saqlanib qolgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tursunov S. Surxondaryo tarix ko‘zgusida. – Toshkent: Sharq, 2001. – 112 b.
2. Ibragimov M. O‘rta Osiyo xalqlari tarixi. – Toshkent: Akademik nashr, 2010. – B. 89–110.
3. Karimov I.A. Etnografiya va madaniyat. – Toshkent: Fan, 1991. – B. 102–130.
4. Sadriddinov R. Surxondaryo viloyatining tarixi va etnik tarkibi. – Toshkent, 2007. – B. 21–55.
5. Rasulov S. Etnik guruhlar va ularning shakllanishi. – Toshkent, 2014. – B. 33–65.
6. Sharipov R. O‘zbekistonda etnik guruhlar va ijtimoiy tuzilish. – Toshkent, 2012. – B. 50–75.
7. Azimov M. Surxondaryo vohasidagi etnik guruhlar. – Toshkent, 2013. – B. 56–92.
8. Ismailov B. O‘zbekiston xalqlari va etnik diversifikatsiya jarayonlari. – Toshkent, 2015. – B. 110–138.
9. Xojayev B. Surxondaryo vohasida turkiy xalqlar tarixi. – Toshkent, 2016. – B. 44–80.
10. Turapova M.T. O‘zbekiston janubiy hududlarida demografik jarayonlar (XIX asr II yarmi – XX asr I yarmi). PhD dissertatsiyasi. – Termiz, 2021. – B. 87–88.
11. Xolmuminov X.E. O‘zbekiston janubiy viloyatlarida tarixiy-demografik jarayonlar (migratsiya masalalari). – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2011. – B. 23.
12. Saidahmatov S. Surxondaryo va Qashqadaryoda demografik o‘zgarishlar va migratsiya // *Ijtimoiy-gumanitar fanlar dolzarb muammolari.* – 2020. – №4(S/9). – B. 26–32.